# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

1
2024



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Google Scholar

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 788 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 7-fevralda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA


Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyati ........ 10
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna**

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda konseptual, ilmiy, innovatsion yondashuvning zarurati ........ 16
**Gulnora Abdurahmonova**

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish muammolari va uni bartaraf etish yo‘llari ........ 22
**S. R. Topildiyev**

Milliy strategik maqsadlar: ekologik va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasi ........ 28
**Muratova Shohista Nimatullayevna**

Green Economy in Tourism in Uzbekistan ........ 32
**Alieva Makhbuba Toychievna**

Инновационные подходы в сельском туризме: “Зеленые маршруты” ........ 36
**Голышева Елена Вячеславовна**

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari ........ 42
**Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Nazarov Nazirjon Narzilloyevich**

To‘qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish omillari ........ 47
**A.Yu. Mardanov**

Turizmni qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirishning istiqbollari ........ 52
**A’zamov Saidakbarxon Avazxon o‘g‘li**

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi asosida barqaror rivojlanishga erishish ........ 57
**Abdullayev Elyorbek Odiljon o‘g‘li**

Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o‘rni ........ 62
**Akbarov Akmalxon Akrom o‘g‘li**

Turistik hududlarning barqaror rivojlanishini baholash metodologiyasida integral baholash ko‘rsatkichlarini aniqlashning nazariy jihatlari ........ 66
**Asraqulov Abduraxmon Sultonovich**

Iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda “yashil” iqtisodiyot va uning ayrim masalalari ........ 70
**Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna, Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi faoliyatining nazariy tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlari ........ 74
**Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich**

Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati ........ 78
**Butanova Dilnoza Rustamovna**

Global krizislar va ularning turizm iqtisodiyotiga ta’siri ........ 83
**Hallakova Barnoxon bahodirjonovna**

Agroturizm faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari va ularda faoliyatni rivojlantirish modellarining qo‘llanilishi ........ 95
**Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o‘g‘li**

Yashil iqtisodiyotni kreditlashda banklarning o‘rni ........ 101
**Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi**

Qurilish materiallari sanoati korxonalari samaradorligini baholash masalalari ........ 104
**Isayev Jakhongir Muzaffarovich**

Iqtisodiyotni islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etish istiqbollari ........ 110
**Kasimov Baxtiyor Usmanovich**

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi ........ 113
**Mahamatova Maftuna**

Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish imkoniyatlari ........ 119
**Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna**

Islom moliyalashtirish xizmatlari asosida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish usullari ........ 124
**Said Po‘latov Maxamedovich**

Using Innovative Technologies in Hotels as a Factor of Sustainable Development of Tourism Industry ........ 128
**Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o‘g‘li**

Dorivor o‘simliklar yetishtirishning dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi o‘rni va xalqaro bozor savdosida prognozlar ........ 135
**To‘xtabayev Jamshid Sharofiddinovich, Maftuna Ermatova Arslonbek qizi**

O‘zbekistonga turistlar tashrifini ko‘paytirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni ........ 142
**Toshmurod Kulmanov**

Agrobiznesni moliyaviy quvvatlash va rivojlanish istiqbollari ........ 147
**Tursunova Dilnavo Islomovna**

Oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan to‘ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish ........ 150
**Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi**

Yoshlar turizmini rivojlantirish holati va uni takomillashtirish yo‘llari ........ 159
**Allayor Norboyev Ismoilovich**

Biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish ........ 162
**Boltayev Abror Sayitmuradovich**

Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilishga uslubiy yondashuvlari ........ 168
**Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich**

Suv resurslaridan samarali foydalanishda suv solig‘ining ahamiyatini oshirish ........ 174
**Ikramov Nuriddin Kamolitdinovich**

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog‘liq tushunchalarining nazariy masalalari ........ 179
**Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Temur Olimovich Mamayunusov**

Aglomeratsiya iqtisodiyoti – Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanishni harakatlantiruvchi omili sifatida ........ 185
**Raximbayev Akmal Azatboyevich**

Korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari ........ 190
**Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich**

Globallashuv sharoitida turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ........ 195
**Salimov Dilshodbek Davronovich**

To‘qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi ........ 199
**Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich**

Oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari ........ 203
**Nilufar Umarova**

O‘zbekistonda transport xizmatlari ko‘rsatilishi tahlili ........ 207
**Xasanov Sarvar Ulug‘bek o‘g‘li**

Agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o‘sishga ta’sirining tahlili ........ 213
**Yangiboyev Sirojiddin Jo‘ramurodovich**

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo‘llash xususiyatlari ........ 220
**Meliyev Isroil Ismoilovich**

Raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish: muammolar va yechimlar ........ 227
**Melikov Otabek Maxmadiminovich**

Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalining tutgan o‘rni ........ 232
**Abdikarimov Islombek Ibragimovich**

Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish modellariga oid zamonaviy tajribalar ........ 237
**Avulchayeva Feruza Djurakuziyevna**

Задачи предмета «русского языке» на современном этапе ........ 243
**Адилова Солияхон**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Tijorat tashkilotlarining investitsiya faoliyati ........ 247
**Farhod Mahmudovich Tirkashyev, Asomiddinov Husan Asomiddin o‘g‘li**

Korrelyatsion-regression tahlil orqali turizm xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmlari........ 252
**Gapparov Azim Qayumovich**

O‘zbekistonda monetizatsiya darajasi va uni makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri........ 258
**Isayev Atabek Djurabayevich**

Prospects for the Development of Bond Circulation in the Capital Market........ 266
**Jurabek Sobirov**

Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili........ 270
**Kuldashev Sherzod Alimardonovich**

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularning barqaror iqtisodiy o‘sishdagi roli ........ 276
**Mamadiyorova Dilorom Ravshon qizi**

Surxondaryo viloyatlarning marketing salohiyatini shakllantirish holati tahlili ........ 280
**Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna**

Improving Internal Control System ........ 287
**Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li**

Oliy ta’lim xizmatlarini targ‘ib qilishda OTMlar veb-saytlari samaradorligini oshirish........ 291
**Musayev Bekjon Shukurillayevich**

Korxonaning narx-navo tizimi va narx siyosatini tahlil qilish ........ 298
**Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhkomovna**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari........ 302
**Muxammadiyev Ramz Zoirjon o‘g‘li**

Xizmatlar ko‘rsatish subyektlarida biznes-modellarining raqamli transformatsiyalashuv konsepsiyalari ........ 306
**N. B. Yahyoxonov**

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili........ 311
**Nazarova Muslima Nazarovna**

Sanoat korxonalarida aylanma mablag‘lardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlari ........ 317
**Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich**

Biznesni yuritishda korxonalararo integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalari ........ 322
**Olimova Nodira Xamrakulovna**

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari: tahlil va istiqbollar ........ 329
**Oppoqxonov Nurmuhammadxon Po‘latxon o‘g‘li**

O‘zbekistonda davlat korxonalari transformatsiyasini jadallashtirish yo‘nalishlari ........ 333
**Qahhorov Azizjon Ahror o‘g‘li**

Aholining turmush darajasini oshirish sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining dinamikasi ........ 338
**Rahimboyev Muxtorbek Ikrom o‘g‘li**

Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari ........ 341
**Raxmanov Mexridin Sindarovich**

Aholi moliyaviy savodxonligiga investitsiya kiritishning ahamiyati ........ 345
**Ruzibayeva Nargiza Xakimovna**

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda valyuta siyosatini samarali tashkil etish........ 350
**Samandarov Zuxriddin Raup o‘g‘li**

Sharq va G‘arb tamaddunida gender qarashlar ........ 355
**Samandarova Gulxayo Abdukarim qizi**

Imkoniyati cheklanganlarga to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari ........ 359
**Tilovmurodov Dostonbek Furqat o‘g‘li**

To‘qimachilik korxonalarining inqirozga qarshi boshqaruvida davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati ........ 363
**Todjimamatova Mashxura Erkinovna**

Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiytlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bog‘liqligi ........ 367
**Toshboyev Muzaffar Muxtorovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Перспективы развития сферы услуг в Узбекистане ....373
**Tsoy Marina Petrovna, Li Marina Rudolfovna, Romashkin Roman Anatolyevich**

Opportunities for Bicycle Tourism in Zomin, Bulungur and Bakhmal Districts ....379
**Urozaliev Elyor Shuxrat ogli, Xujamov Bobur bahodir ogli, Saydullayev Abbosjon Murodovich**

Pul-kredit siyosati va moliyaviy inqiroz: uslubiyot va saboqlar ....384
**Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich**

Korxonalarda barqaror rivojlanishni tatbiq etish istiqbollari ....391
**Xidirova Marg'uba Rustamovna, Jumayeva Guzal Sherxon qizi**

Telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ....396
**Xusanov Ulugbek Nishanovich**

Milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini kengaytirish imkoniyatlari ....402
**Xuseynova Feruzabonu Mamadaliyevna**

O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ....405
**Yo'ldosheva Dilnoza G'ayrat qizi**

Необходимость соблюдения этических норм в профессиональной деятельности бухгалтеров ....408
**Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна**

Mintaqalarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ....412
**Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Axmadjanov Ilyosbek Ilxomjon o'g'li**

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari ....416
**Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich**

Пути повышения прозрачности бюджета Республики Узбекистан ....420
**Адашов Гайрат Рустамович**

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi ....424
**Axmediyeva Aliya Toxtarovna**

Тенденции и факторы развития пищевой промышленности в Узбекистане ....432
**Б. А. Хакимов**

Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции ....438
**Бабаева Гузаль Яшиновна**

"Sirdaryo" va "Sirdaryo-Farm" erkin iqtisodiy zonasidagi xorxonalari erishgan yutuqlari, berilgani imtiyozlar va yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida ....444
**Davlayev G'olib Ashurovich**

Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili ....447
**Djalilov Dostonbek Abduazizovich**

Ishlab chiqarish tafovutining Markaziy Bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri ....452
**Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich**

O'zbekistonda innovatsion jozibadorlik asosida oliy talim xizmatlarini rivojlantirish ....457
**Jonuzokov M. K.**

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish ....461
**Ismailov Allayor Rashidovich**

Особенности формирования ценовой стратегии на рынке плодоовощной продукции ....465
**Исроилов Абдурашид Абдурахманович**

Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish ....471
**Kalandarova Nargiza Narimanovna**

Проблемы регулирования и защиты инвесторов в развитии электронной коммерции и пути их решения ....475
**Кенжебаева Гульфуза Рахматиллаевна**

Сущность, цели и задачи определение уровня финансовой устойчивости предприятия в современных условиях ....478
**Киличев А. А.**

Sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish ....485
**Kodirkulov Oybek Turdiboyevich**

Классификация институциональных факторов, определяющих предпринимательскую активность в Узбекистане ....490
**Курпаяниди Константин Иванович**

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligi tahlilini takomillashtirish ....497
**Mahmudova Go‘zal Samadjon qizi**

Muqimiy ijodiDA milliy uyg‘onish va iqtisodiy, falsafiy qarashlar ....502
**Muxlisa Muxitdinova**

Совершенствование управления портфелем залогов для обеспечения финансовой устойчивости: инсайты и рекомендации для Узбекистана ....505
**Наимов Шахрух**

Определение специфических особенностей и факторов вляющие на процесс внедрения междурнародных требований и стандартов в коммерческих банков Республики Узбекистан ....509
**Хайдаров Зохир Шаривович , Каражанова Гулноза Толлиевна, Хайдари Фидои Зохир Зода**

Inson kapitalida mujassam bo‘lgan fazilatlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va roli ....514
**Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Sevara Abdinazarovna Babanazarova, Mexrangiz Olimovna Mamayunusova**

Развитие рыночных отношений и усиление их влияния на рост объёмных и качественных показателей культурного туризма ....521
**Пулатова Сурайё Юлдашевна**

Основные направления цифровой трансформации в банковском секторе ....525
**Рахимова Гавхар Ойбековна**

O‘zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlarining roli ....530
**Saidova Subhinigor Azizovna**

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirishning innovatsion yo‘llari ....535
**Sultonov Shodiyor Abduhalilovich, Nazarov Asqar Anvar o‘g‘li**

Yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari ....541
**Umirov Xurshid Islomovich**

Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish jarayonlari ....545
**Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna**

“Авеста” – исторический источник экономической мысли в Древней Средней Азии ....549
**Хакимов Назар Хакимович, Садиков Анвар Каримович**

Приоритетные направления развития теории формирования финансовой политики предприятия ....555
**Хамдамов С. Ф.**

Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish ....562
**Xasanova Nafisa Shavkatovna**

Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish ....566
**Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi**

Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar ....572
**Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna**

Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o‘ziga xos iqtisodiy xususiyatlari ....578
**Zikrillayev Jaxongir Sarvar o‘g‘li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich**

Infratuzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o‘rni ....583
**Toyirova Amina Baxtisher qizi**

Korxonalarda moliyaviy investitsion portfelni jalb qilish va rag‘batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili ....588
**Haydarov Humoyun Begmurod o‘g‘li**

Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar ....592
**K. Q. Tajibayev**

Бухгалтерский учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике ....599
**Камолова Феруза Кахрамоновна**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari ........ 603
**Mirzayeva Lola Shavkatovna**

Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni ........ 607
**Normurodova Zebo Eshmaxmatovna**

Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi ........ 612
**Ruzmetova Gulira'no Atabekovna**

Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari ........ 620
**Salixov Sherzod Abduxakimovich**

Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish ........ 625
**Xusanova Gulsum Baxtiyorovna**

Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish ........ 628
**Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich**

Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi ........ 635
**Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li**

Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari ........ 640
**Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov**

Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста ........ 644
**Насиров Дилшод Фархадович**

Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана ........ 654
**Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович**

Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir ........ 659
**Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li**

Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlari ........ 664
**Razzakov Jasur Xamraboyevich**

Inflation and Unemployment: Evidence from Uzbekistan ........ 670
**Mahmudov Nosir, Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi**

Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish ........ 677
**Meliqulov Abduhalil Norinovich**

O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari ........ 683
**Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li**

Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi ........ 689
**Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna**

Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari ........ 694
**Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li**

The Importance of the World Trade Organisation (WTO) and Uzbekistan's Efforts to Join It ........ 699
**Urozaliev Elyor, Khoshimova Sevara**

Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar ........ 705
**Abduqaxorov Ulug'bek Abdug'aniyevich**

Yangi O'zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari ........ 709
**Tuxliyev Iskandar Suyunovich**

Mahalliy soliqlar va yig'imlarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni undirishning xususiyatlari ........ 713
**Tuychiyev Kamoliddin**

Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari ........ 717
**Yadgarov Nodir Ravshanovich**

Organik qishloq xo'jaligiga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlari va iqtisodiy asoslari ........ 723
**Amirqulov Shuxrat Olimovich**

Davlat xaridlari jarayonida e'tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari ........ 727
**G'ofurov Temur Baxrom o'g'li**

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari ............ 730
**Utkurov Kozimjon Dilmurod o‘g‘li**

Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari ............ 733
**M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva**

Sug‘urta faoliyatini takomillashtirishda anderrayting xizmatining o‘rni ............ 737
**Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich**

O‘zbekistonda eksportni sug‘urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo‘nalishlari ............ 741
**Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich**

Kambag‘allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo‘naltirish ............ 745
**Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich**

Yoqilg‘i-energetika korxonalarning moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari ............ 749
**Xusanov Qaxramon Nishonovich**

Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике ............ 753
**Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна**

Эффективность программ соответствия в различных компаниях ............ 757
**Ахмедов Бехзод Ахмедович**

Элементы системы внутреннего контроля в выбранном финансовом институте ............ 762
**Хасанов Кахрамон Ахмаджанович**

Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles ............ 767
**Esanova Shohida Utkirovna**

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg‘or xorij tajribalari ............ 774
**Madiyarov Sanjar Gulyamovich**

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish ............ 781
**Toshpo‘latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o‘g‘li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vaziri, texnika fanlari doktori, professor

**Zaynutdinova Umida Djalolovna**
Toshkent moliya instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning oʻrni va ahamiyati ochib berilgan, investitsiyalarni jalb etish tendensiyalari tahlil etilgan, investitsiya siyosatining tamoyillari ajratilib berilgan. Shuningdek investitsiyalarning mamlakat eksport va importida tutgan oʻrni amaliy maʼlumotlar asosida tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: investitsiya, xorijiy investitsiya, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, asosiy kapital, eksropt, import, pul oqimi, iqtisodiy oʻsish, samarali investitsiyalar, yalpi ichki mahsulot.

Abstract: This article reveals the role and importance of investments in the development of the national economy, analyzes the trends of attracting investments, and distinguishes the principles of investment policy. Also, the role of investments in the export and import of the country was analyzed based on practical data.

Key words: investment, foreign investment, financial and economic crises, fixed capital, export, import, cash flow, economic growth, effective investments, gross domestic product.

Аннотация: В данной статье раскрываются роль и значение инвестиций в развитии национальной экономики, анализируются тенденции привлечения инвестиций, выделяются принципы инвестиционной политики. Также на основе практических данных была проанализирована роль инвестиций в экспорте и импорте страны.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, финансово-экономический кризис, основной капитал, экспорт, импорт, денежный поток, экономический рост, эффективные инвестиции, валовой внутренний продукт.

## KIRISH

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyatini tadqiq etishda makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash va iqtisodiy oʻsishga erishishning asosiy omillaridan biri – respublika iqtisodiyotiga ishlab chiqarish omillari (yer, kapital, ishchi kuchi) hamda ularning tarkibidagi muhim oʻringa ega boʻlgan investitsiyalarning, avvalambor, toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalarning samarali joylashtirilishi hisoblanadi. Shu sababli, investitsiyalarning samaradorligi iqtisodiyotda takror ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi asosiy omil ekanligini koʻrish mumkin.

Taʼkidlash lozimki, “Samarali investitsiyalar makro, mezo va mikro darajadagi butun iqtisodiy muammolarni hal qiladi, shuningdek, iqtisodiyotni isloh qilish va uni qayta qurish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Xususan, investitsiyalar mamlakat moliya-kredit tizimining samarali ishlashini taʼminlaydigan elementdir” [1].

Yuqoridagilar asosida mamlakat iqtisodiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning ham ahamiyatini alohida qayd etish lozim. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini jadallashtirish orqali yuqori samarador investitsiyalarni jalb etish, bu orqali iqtisodiy oʻsishni taʼminlash mumkin.

Binobarin, milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy oʻsishga erishish, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni keng joriy etish, samarali bandlikka erishish va aholi daromadlarini oshirishda investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarning oʻrini beqiyosdir. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda investitsiyalarga boʻlgan eʼtiborning kuchayishi va qulay investitsion muhitning yaratilishi investitsion faoliyatning rivojlantirilishiga ijobiy taʼsir qilmoqda. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning xorijiy tajribalar va ichki imkoniyatlarni hisobga olgan holda, erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng hamda atroflicha tahlili asosida taʼkidlash mumkinki, mamlakatimiz hukumati oldida turgan dolzarb masalalardan biri bu qulay investitsion muhitning yaratili-

shidir. Shuningdek, mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari va rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, makro va mikro darajadagi loyihalarni amalga oshirishda asosiy e’tibor xorijiy investitsiyalarga qaratilayotganligini ta’kidlash kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan faol investitsiya siyosatiga bog‘liq. Shu asosda davlatimizning raqobatbardoshligi va eng asosiysi, aholi farovonligi tubdan oshishi, yangi korxona va tarmoqlar, yangi ish o‘rinlari yaratilishini, o‘ylaymizki, tushuntirib o‘tirishning hojati yo‘q” [2].

## ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy lug‘atda “Investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli qo‘yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo‘jaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig‘indisini aks ettiradi” [3], – deb ta’riflangan. Iqtisodchi olim P.A.Samuelsonning fikriga ko‘ra, investitsiyalash daromadlarni joriy iste’mol uchun ishlatmasdan, ularni kelajakda ko‘proq foyda olib, faoliyatni kengaytirish uchun sarflashdir [4].

Rossiyalik olim A.M.Margolin “Investitsiyalar” darsligida “Investitsiyalar – pul mablag‘lari, maqsadli bank jamg‘armalari, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko‘rinishidagi kapital qo‘yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo‘lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko‘zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritishdir” [5], – deb ta’riflaydi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan prof. D.G‘.G‘ozibekov esa investitsiyalarni quyidagicha ta’riflaydi: “Investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog‘lash bo‘lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg‘arish maqsadiga qaratiladi” [6].

Ma’lumki, investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida sabab-oqibat bog‘lanishi mavjud bo‘lib, u taniqli iqtisodchi-olim, Nobel mukofotining laureati P.A.Samuelson tomonidan “akselerator prinsipi” orqali izohlab berilgan. Bu prinsipning mohiyati quyidagicha: “real yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishi real investitsiyalar hajmining o‘sishiga olib keladi, o‘z navbatida, real investitsiyalar hajmining o‘sishi yana real yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishini ta’minlaydi…” [7]

Bu borada, A.R.Karamisheva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi sharoitida investitsiyalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati, mohiyati ular tomonidan amalga oshiriladigan qator funksiyalar orqali ifodalangan. Iqtisodchi olimning fikriga ko‘ra, “makro darajada investitsiyalarning quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni;
- aylanma mablag‘larni ta’minlash va to‘ldirish jarayoni;
- moliyaviy aktivlarni sotib olish va sotish orqali kapitalni bir hududdan ikkinchi hududga o‘tkazish;
- kapitalni mulkdorlar o‘rtasida ulushlarni olish va boshqa korxonalarning aktivlariga investitsiya kiritish yo‘li bilan qayta taqsimlash” [8].

## TAHLIL VA NATIJA

Investitsiyalarning, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarning mikro darajadagi o‘rni va ahamiyati ham muhim hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishi, mahsulot sifatining oshishi, ish haqi darajasining o‘sishi bilan birga jahon bozorlariga samarali integratsiya bo‘lishida asosiy omildir. Bugungi kunda moliyaviy-iqtisodiy mobillikning tobora kengayishi va mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishida tadbirkorlik faoliyatining xorijiy investitsiyalar yordamida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni o‘z bozoriga yetkazish va yuqori samaradorlikda erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Shuningdek, investitsiyalar moliya bozorining ham samarali ishlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishda, xorijiy investorlarning portfel investitsiyalar shaklida milliy iqtisodiyotga sarmoya kiritishlari mamalakatda ishlab chiqarishni rivojlantirishga bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan kredit, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish natijasida ishlab chiqarishni mablag‘ bilan ta’minlash imkoniyati hosil bo‘ladi. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning miqdorini keskin oshirib borish va ulardan yuqori samaradorlikda foydalanish iqtisodiyotni yuksaltirishda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hech bir davlat alohidalashgan holda, boshqa mamlakatlarning ilm-fan va texnika sohasida erishgan yutuqlaridan foydalanmasdan barqaror rivojlanishi mumkin emas. O‘zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilar ekan, uni xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishsiz erishilishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishda xalqaro moliya institutlari bilan bevosita aloqada bo‘lish iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi, real sektorni industriallashtirish va taraqqiy etgan davlatlar qatorida joy egallashining dolzarb yo‘nalishidir.

Ta'kidlash lozimki, xorijiy investorlar o'z kapitalini investitsiyalash jarayonida bir qator jihatlar va yaratilgan shart-sharoitlarga e'tibor qaratadi:

- mamlakatning tinchligi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, xorijiy investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va imtiyozlar;
- investorlar huquqlarini himoya qilinganligi, erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun qonuniy asoslarning shakllanganligi;
- investitsiya loyihalarini ishlab chiqarish va amalga oshirishda xom ashyo zaxiralari ko'lami va yaqinligi, ishchi kuchi va malakali mutaxassislar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaning holati (elektrenergiya, gaz, suv, kanalizatsiya, avtomobil va temir yo'l);
- investor o'z faoliyati davomida olgan foydasini milliy valyutadan xorijiy valyutaga erkin ayirboshlash imkoniyati.

kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash va kengaytirish

↓

ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, sifatni oshirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash

↓

ijtimoiy ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish va milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini mutanosib rivojlantirish

↓

sanoat uchun zarur xomashyo bazasini yaratish

↓

qurilish muhandisligi, sog'liqni saqlashni rivojlantirish

↓

ishsizlik muammosini yumshatish yoki hal qilish

↓

harbiy-sanoat komplektsini konvertatsiya qilish

↓

tabiiy muhitni muhofaza qilish

1-rasm: Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati[1]

O'zbekiston jahonda turli moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar hukm surayotgan bir sharoitda ham xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhidan joy olmoqda. Bunga mamlakatimizda uzoq strategik maqsadlarni ko'zlagan holda puxta o'ylangan va olib borilayotgan davlat investitsiya siyosati va dasturlari hamda qulay investitsiya muhiti yaratilayotgani asosiy omil bo'lmoqda. Biroq, mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarini jalb qilishni kengaytirish borasida hali ham yechimini kutayotgan bir qancha muammolar mavjudligini aytib o'tish lozim:

- ilm-fan va ishlab chiqarishning bo'g'liqligining talab darajasida emasligi, zamonaviy texnoligiya va innovatsiyalarning real sektor tarmoqlarida sust qo'llanilishi;
- iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaga oid muammolar, shu jumladan, korxonalarning elektr energiya, tabiiy gaz, suv va yoqilg'i mahsulotlari bilan ta'minlashda uzilishlar mavjudligi;
- moliyaviy bozorning sust rivojlanganligi va ko'lamining kichikligi.

1 Muallif ishlanmasi.

Qayd etish lozimki, moliya bozorlarining rivojlanganligini belgilovchi me'zonlarga mamlakat moliya bozorining kengligi (moliya dastaklari bilan ta'minlanganlik darajasi), chuqurligi (moliyaviy operatsiyalar ko'lami) va ochiqligi (moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda to'siqlarning mavjud emasligi) ko'rsatkichlari mansub bo'lib, O'zbekiston Respublikasidagi mavjud holat shu bilan xarakterlanadiki, fond bozorida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyuta risklarini hedjirlash bo'yicha dastaklar, moliyaviy likvidlilikni ta'minlashga qaratilgan bozor mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning ahamiyatini yanada aniqlashtirish uchun mamlakat iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalarning ulushini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.




2-rasm: O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning mamlakat YaIM hajmidaga ulushi[2]

2-rasmda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning mamlakat YaIM hajmidagi ulushi aks ettirilgan. Unga ko'ra, 2017-yilda YaIM hajmi 317 476,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiyotda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalaring YaIMdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etgan. 2018-yilda respublikada YaIM hajmi 426 641,0 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Mazkur yildagi YaIM hajmida investitsiyalarning ulushi 30,6 foiz bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 6,7 foiz ko'p demakdir. Shuningdek, 2019-yilda YaIMning hajmi 532712,5 mlrd. AQSh dollariga yetib, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ulushi 38,3 foizdan iborat bo'lgan. 2020-yilda YaIM hajmi 2019-yilga nisbatan 71 foizdan ortiqqa o'sgan bo'lsada, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi oldingi yilga nisbatan 2,1 foizga pasayib, 36,2 foizni tashkil qilgan. Albatta, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushining kamayishining asosiy sabablaridan biri – koronavirus pandemiyasining iqtisodiy faoliyatga ko'rsatgan salbiy ta'siri bilan izohlash o'rinli, deb hisoblaymiz. Ammo, 2021-yilda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mamlakatimiz YaIM hajmidagi ulushi 32,4 foizni tashkil etgan bo'lsada, ushbu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 5,9 foizga, 2020-yilga nisbatan 3,8 foizga kam hisoblanadi. Ushbu pasayish tendensiyasiga bir qancha omillarni sabab qilsak bo'ladi. Birinchi navbatta xorijiy investitsiyalar oqimining pasayishi holatining sababi pandemiya oqibatlarining dunyo miqyosida ham to'liq bartaraf etilmaganligi bo'lsa, ikkinchidan yirik geosiyosiy mojarolar asnosida Rossiya-Ukraina munosabatlarining keskinlashuvi bilan izohlash maqsadga muvofiqdir. Bu borada tahlilchilarning ta'kidlashicha, “Rossiya Federatsiyasining Ukrainada maxsus operatsiyani amalga oshirishi sababli Rossiyaga nisbatan Yevropa ittifoqi va boshqa ayrim mamlakatlar iqtisodiy sanksiyalar qo'yishdi. O'z navbatida Rossiya ham aks choralarini ko'rishdi. Oqibatda jahon bozori konyukturasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. 14-mart kuni Rossiyaning Yevrosiyo Ittifoqi mamlakatlariga don mahsulotari va o'simlik yog'ini eksportini to'xtatishi, 31-martda Yevropa mamlakatlariga tabiiy gazni rublda sotishi va hokazolardan so'ng jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi va Ukraina mamlakatlari o'rtasidagi vaziyat jahon iqtisodiyotida o'sishning sekinlashuvi va inflatsiya darajasining oshishi kabi oqibatlarda namoyon bo'ladi” [9].

Shuningdek, xorijiy ekspertlardan Economist Intelligence Unit tadqiqotlariga ko'ra, Rossiyadan pul o'tkazmalari O'zbekiston YaIM ni 12 %ni tashkil etadi va Rossiya iqtisodiyotining inqrozga yuz tutishi Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotiga katta xavf solishi mumkin. Yesimjan Naqtibaylar Rossiyaga ko'rilgan sanksiyalar import tovarlarni Qozog'istonga olib o'tishga ta'sir qilishini va buning natijasida ba'zi tovarlar O'zbekiston-

2 Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

ga eksport qilinishi qisqarishi mumkinligini aytishgan. Farangiz Najibullax tadqiqotlariga ko'ra, 2021-yilda Rossiyada 4,5 million o'zbekistonlik muxojirlar ishlash uchun kelgan bo'lib, inqiroz aholi daromadlariga sezilarli ta'sir qilishini aytgan [10].




3-rasm: 2021-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining MDH bo'yicha geografik taqsimoti, mln. AQSH doll. [11]

3-rasmga ko'ra, 2021-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining MDH bo'yicha geografik taqsimotida quyidagi tahlillar shakllantirildi:

- eksport ko'rsatkichi bo'yicha Rossiya Federatsiyasi 1-o'rinni egallagan. Keyingi o'rinlarni Qozog'iston, Qirg'iziston va Tijikiston tomonidan band etilgan;
- import ko'rsatkichlarida Rossiya 5 580 mln. AQSh dollari (23 %) bilan birinchi o'rinni egallagan. Shuningdek, Qozog'iston importi hajmi 2 860 mln. AQSh dollari (12 %) miqdoridagi ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rinda.

Umuman olganda, ko'rib o'tilgan ma'lumotlar va tadqiqotlar asosida mamlakat iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalarning ahamiyati muhim ekanligidan anglash mumkinki, mamlakatda investitsiya muhiti jozibadorligini doimiy ravishda yaxshilab borish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash lozimki, investitsiyalar milliy iqtisodiyot real sektori tarmoqlarini zamon talablari asosida texnik-texnologik jihatidan modernizatsiya qilish, sog'lom raqobatchilik muhitini yaratish, iqtisodiy salohiyatni yanada oshirish, qo'shilgan qiymat zanjirida munosib o'rin egallash, eksportga yo'naltirilgan va importning o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi daromadlarini oshirish va turmush farovonligini ta'minlash va mamlakat yalpi ichki mahsulotining barqaror o'sish sur'atlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar, ayniqsa, xorijiy investitsiyalar o'rnini oshirishning iqtisodiy ahamiyati va nazariy asoslarini o'rganish natijasida quyidagi muhim xulosalar shakllantirildi:

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kutilayotgan darajada samara beradigan investitsiya loyihalarini yaratish va moliyalashtirish va uning asosida yangi ish o'rinlarini yaratib, aholi bandlik darajasini oshirish juda muhim rol o'ynaydi. Bunday ijobiy natijalarga erishish uchun iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga qiziqayotgan investorlarga yetarlicha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz lozim;
2. Investitsiya loyihasi tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanib, puxta tayorlagan investitsiya loyihalari orqali mamlakatdagi ishlab chiqarish sohalariga samarali yo'naltirilgan mablag'lar natijasida, yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishish mumkin bo'ladi;
3. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda uning monitoringini olib borish tizimining amal qilishi loyihaning nafaqat iqtisodiy samaradorligini, shuningdek ijtimoiy samaradorligini va siyosiy ahamiyatini oshirishga xizmat qilib, mamlakatimiz investitsiya siyosatida asosiy va muhim vazifasi bo'lgan – 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini ikki barobardan ziyodga oshirish imkonini beradi;

4. Investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mulk egalari pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilishi va tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan investitsiya jarayonida ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni mohiyatini chuqur anglagan holda, o'z pozitsiyasini aniq belgilab olishi shart;

5. Investitsiyalarning, shu jumladan xorijiy investitsiyalarning mikrodarajadagi o'rni va ahamiyati muhim hisoblanib, mamalakatimizdagi har bir tadbirkorlik subyektining ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalar (xorijiy investitsiyalar)ning jalb qilinishi ushbu tadbirkorlik faoliyatining milliy va jahon bozorlariga samarali integratsiya bo'lishida asosiy omildir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Л.И.Юзвович. Экономическая природа и роль инвестиций в национальной экономической системе. Финансы и кредит. 9 (393) – 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. 2019-yil 12-yanvar. https://president.uz/oz/lists/view/1423.
3. Финансово-кредитный словарь. –Т. 1. – М.: "Финансы и статистика", –1984. – С. 470.
4. Самуэльсон П.А. Экономика: Издание 15-е. Пер. с англ. –Бином М. –КноРус, 1999. –С. 800.
5. Марголин А.М. Инвестиции: Учебник. –Москва: Изд-во РАГС, 2021. –С. 26.
6. G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. –Toshkent: "Moliya" nashriyoti, 2003. 9-bet.
7. Paul A. Samuelson. "Foundations of Economic Analysis". –Harvard University Press, –1947.
8. Карамышева А.Р. Инвестиции и их роль в развитии экономики. Transport business in Russia. https://cyberleninka.ru/article/n/investitsii-i-ih-rol-v-razvitii-ekonomiki.
9. Eshpulatov D.B. Rossiya federatsiyasi va ukraina o'rtasidagi inqiroz va uning o'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2/2022, mart-aprel (№ 00058).
10. https://www.rferl.org/a/central-asia-migrants-rubleimpact/31730968.html.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisobotlari. https://cbu.uz/ru/publications/annual-report.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.